

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA BUDJETDAN TASHQARI MOLIVAVIY RESURLARNI BOSHQARISH TIZIMINI OPTIMALLASHTIRISH

Boltayev Ahmad Rustamjonovich

MTTDMQTMOI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari moliyaviy resurslarni boshqarishning mavjud holati va uni takomillashtirish imkoniyatlari tadqiq etildi. Ilmiy-nazariy manbalar, xorijiy tajribalar va milliy amaliyot tahlili asosida byudjetdan tashqari mablag'lar mohiyati, ularning tuzilmaviy turlari hamda shakllanish xususiyatlari yoritildi.

Kalit so'zlar: pedagogik boshqaruv, moliyaviy avtonomiya, byudjetdan tashqari mablag'lar, maktabgacha ta'lim, moliyaviy menejment, jamoat-shakildagi sheriklik.

Abstract

This article examines the current state of managing off-budget financial resources in preschool education institutions and explores opportunities for improving this management. Based on the analysis of scientific and theoretical sources, foreign experience, and national practices, the study highlights the essence of off-budget funds, their structural types, and the characteristics of their formation.

Keywords: pedagogical management, financial autonomy, off-budget funds, preschool education, financial management, public-private partnership.

Maktabgacha ta'lim sohasi jamiyatning barqaror va izchil rivojlanishi uchun asos bo'lib, har bir mamlakat o'zining kelajak intellektual salohiyatini shakllantirishda aynan bolalarning ilk ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratmoqda. O'zbekistonda ham 2019 yilda qabul qilingan «2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi»da maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish, moliyalashtirishni amaldagidek darajada saqlash va yangi mablag'lash tartiblarini joriy etish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish kabi vazifalar belgilangan. Bu esa sohani mablag' bilan ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Davlat tomonidan sohaga katta e'tibor qaratilib, umumiy davlat byudjeti xarajatlarining katta qismi ta'lim sohasiga yo'naltirilgan bo'lsa-da, maktabgacha ta'limda bolalarni qamrab olish darajasi pastligicha qolmoqda va sohani kengaytirish uchun hukumat tomonidan byudjetdan tashqari qo'shimcha resurslarni jalb etish zarurligi ta'kidlandi. Joriy islohotlar doirasida Prezidentning 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-son qarori va 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-son farmoni bilan maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish choralari ko'rildi. Jumladan, davlat-xususiy sherikchiligi asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini rivojlantirishga sharoit yaratildi. Bunda maktabgacha ta'lim tizimida moliyaviy mustaqillik tamoyillarini joriy etishga zamin yaratilmoqda.

Maqolada me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar tahlili usullari qo'llanilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larni boshqarishga oid mavjud holat tahlil qilindi. Xorijiy tajriba sifatida Rossiya maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi byudjetdan tashqari faoliyatni tashkil etish amaliyoti o'rganildi. Masalan, Rossiyada bolalar bog'chalari o'z ustavlarida qaysi turdagi to'lovli xizmatlarni ko'rsatishi mumkinligini aniq belgilab qo'yishi, har bir mablag'

manbasi bo'yicha daromadlar-sarflar smetasini tayyorlashi hamda ichki nizom orqali byudjetdan tashqari daromadlarni taqsimlash tartibini belgilashi talab etiladi. Shuningdek, har bir byudjetdan tashqari faoliyat yo'nalishi uchun mas'ul kadrlarni belgilash, ularni tegishli me'yoriy talablar bo'yicha o'qitish va mablag'larni sarf etishning maqsadlilik ustidan muntazam ichki nazorat o'rnatish zarurligi ta'kidlanadi. Byudjetdan tashqari daromadlarni soliqqa tortish va ular bo'yicha hisobot yuritish ishlari ham qonunchilikka muvofiq o'z vaqtida amalga oshirilishi lozim.

Ushbu tadqiqot doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotida byudjetdan tashqari mablag'larni boshqarish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy elementlar va jarayonlar ta'kidlab o'tildi. Ular quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. *Rejalashtirish va smeta tuzish.* Maktabgacha ta'lim tashkiloti yil avvalida o'zining byudjetdan tashqari daromad va xarajatlar smetasini ishlab chiqadi. Unda har bir ehtimoliy mablag' manbasi (ota-ona to'lovlari, qo'shimcha xizmatlar, homiylik va h.k.) bo'yicha tushum prognozi va ularning sarflanish yo'nalishlari aniq rejalashtiriladi. Smeta tegishli tashkilot rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

2. *Mablag'larni jalb etish (amaliy faoliyat).* Tasdiqlangan rejaga muvofiq, muassasa qo'shimcha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, to'garaklar tashkil etish, zal va xonalarni ijaraga berish kabi faoliyatlar orqali daromad oladi. Bunda har bir faoliyat turi bo'yicha alohida hisob yuritiladi va shartnomalar tuzilib, mablag'larni qabul qilish jarayoni rasmiylashtiriladi.

3. *Taqsimlash va sarflash.* Byudjetdan tashqari daromadlar tushumi amalga oshgach, ularning taqsimoti belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi. Avvalo, ushbu daromadni olish uchun qilingan xarajatlar (masalan, to'garak ustozlariga haq to'lash, resurslar xaridi) qoplanadi. Keyin, qolgan foyda mablag'lari muassasaning rivojlanishi uchun qayta investitsiya qilinadi. Jumladan, moddiy-texnik bazani yaxshilash, xodimlarni rag'batlantirish yoki ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilishi mumkin. Bunda taqsimot muassasa kengashi yoki vasiylik kengashi bilan kelishiladi.

4. *Hisobot va nazorat.* Mablag'lar harakati bo'yicha ichki buxgalteriya hisobi yuritiladi hamda har chorakda muassasa rahbariyati byudjetdan tashqari mablag'lar daromadlari va sarflanishi to'g'risida hisobot tayyorlab, ta'sischi va vasiylik organlariga taqdim etadi. Shuningdek, soliq to'lovlari o'z vaqtida va to'liq ado etilishi ta'minlanadi. Byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish samaradorligi ichki auditorlar tomonidan tahlil qilinib, zarur hollarda tegishli tuzatish takliflari kiritiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy qismlar byudjetdan tashqari mablag'larni boshqarish mexanizmining asosiy bo'g'inlari bo'lib, ularning uzviy amal qilinishi orqali moliyaviy resurslarni maqsadli va samarali yo'naltirish imkoniyati oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori bilan tasdiqlangan "2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-son qarori "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
4. Kuznetsova S.V., Ilchenko A.N. (2008). Проблемы финансирования дошкольных образовательных учреждений. Современные наукоемкие технологии, №4, стр. 170–172.

5. Yanson M.M. (2021). Istochniki finansirovaniya modernizatsii materialno-texnicheskoj bazy gosudarstvennykh byudjetnykh obshchobrazovatelnykh i doskolnykh obrazovatelnykh uchrejeniy v g. Sankt-Peterburg. Molodoy uchenyy, №2 (344), str. 288–292.

6. Nazarov X.B. (2020). Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash usullari. Science and Education ilmiy jurnali, 1(2).

7. Samsonova N.V. (2024). Formy i metody privilecheniya vnebyudjetnykh sredstv (iz opyta raboty). Obrazovatel'naya sotsial'naya set nsportal.ru, publikatsiya ot 12.02.2024.

8. UNICEF Uzbekistan (2021). Mobilizing additional resources for education sector financing. (Tahliliy hisobot, UNICEF O'zbekiston).

9. Abdullayeva N.Sh. The role of modeling in the development of coherent speech of senior preschoolers// International Conference“Process Management and Scientific Developments” Birmingham, United Kingdom 2019 B 91-95